International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

FONETIKANI O‘QITISH METODIKASI

Oydinov Tursunmurod Yusipovich

Samarqand davlat chet tillar instituti
o‘qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o‘zbek tili fonetikasining o‘qitish metodikasi va undagi ba’zi muammolar haqida ma’lumotlar beriladi. Maqolada adabiy tilda talaffuzni shakllantirish va imloviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha ham ma’lumotlar berilgan. Fonetikani o‘qitishda turli metodlar va interfaol ta’lim usullaridan foydalanish haqida ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar:

Fonetika, cho‘ziq va qisqa unlilar, jarangsiz va jarangli undoshlar, konkret bosqich, nutq tovushlari, adabiy til, to‘g‘ri talaffuz va imlo

METHODOLOGY OF TEACHING PHONETICS

Abstract:

This article provides information about the teaching methodology of the phonetics of the Uzbek language and some problems in it. The article also provides information on the formation of pronunciation in the literary language and increasing spelling literacy. The use of various methods and interactive educational methods in the teaching of phonetics is also mentioned.

Key words:

Phonetics, long and short vowels, consonant and consonant consonants, concrete stage, speech sounds, literary language, correct pronunciation and spelling norms.

Tilshunoslikning fonetika bo‘limini o‘qitish orqali talabalarga tildagi tovushlar, tovushlarning hosil bo‘lishi, adabiy tilda talaffuzni shakllantirish, imloviy savodxonlikni oshirish kabi bir qancha zarur bo‘lgan ko‘nikma va bilimlar beriladi. Fonetikani o‘qitish jarayonida tovushlarning hosil bo‘lishi va ularning yozma shaklda ifodalanishiga alohida e’tibor berish lozim. Bu jarayon adabiy talaffuz ko‘nikmasini rivojlantirib, imloviy savodxonlikni oshiradi.

Fonetikani o‘rgatish, u haqida ma’lumot berish dastlab maktabda Ona tili darsligidan boshlanadi va bu holat bosqichma-bosqich davom etib boraveradi. Darsliklarda, asosan, fonetik qoidalar, to‘g‘ri talaffuz va imlo me’yorlarini shakllantirish borasida ko‘plab o‘quv topshiriqlar va turli tushuntirishlar keltirilgan. Tilda talaffuzning noto‘g‘ri shakllanishiga, asosan, har bir hududning o‘ziga xos so‘zlashish shevasi va lahjalari o‘z tasirini ko‘rsatadi. Masalan, Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on, Urgut, Pastdarg‘om, Nurobod kabi tumanlarining ba’zi hududlarida yashovchi aholining talaffuzida fonetik chalkashliklar kuzatiladi. Kattaqo‘rg‘on, Nurobod tumanlarida **u** – **o‘** unlilarining ishlatilishida tushunmovchilik mavjud. Bu hududda yashovchi aholi, o‘quvchilar, dars o‘tadigan o‘qituvchilari ham **o‘** unlisini **u**, **u** unlisini **o‘** deb talaffuz qilishadi, natijada **o‘rdak**, **uzum**, **o‘lka** kabi so‘zlarni talaffuzida muammolar yuzaga keladi.

Pastdarg‘om tumanining ayrim shevalarida ham bunday muammolar kuzatiladi. Bu hududning o‘quvchilari, hatto o‘qituvchilari ham **u** unlisini adabiy til me’yorda talaffuz qila olmaydi, masalan, **uy** so‘zini **iy**, **bugun** so‘zini **bigin, un** so‘zini **in, buzmoq** so‘zini **bizmoq, uxlamoq** so‘zini **ixlamoq** tarzida talaffuz qiladi yoki **o‘** unli tovushi ham **i** tarzida talaffuz qilinish holatlari ham uchraydi: **o‘rganmoq-irganmoq** kabilar. Bu esa, o‘z navbatida, mazkur hududda yashovchi kishilar adabiy til me’yorlarini buzib talaffuz qilishiga olib keladi.

Urgut tumanining ayrim hududlarida yashovchi aholining talaffuzida ham kamchiliklar kuzatiladi. Bu hududda yashovchilar talaffuzida **i** – **e** unlilari yaxshi farqlanmaydi: **eshik** so‘zini **ishik** tarzida talaffuz qilishadi. Hududlar talaffuzidagi bunday chalkashliklar, albatta, adabiy til me’yorlari va imloviy savodxonlikka o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

Biz faqatgina Samarqand viloyatidagi ba’zi hududlarda yashovchi aholining talaffuziga va nutq tovushlarining qo‘llashiga etibor qaratdik. Bunday kamchiliklar barcha viloyatlar hududlarida kuzatiladi. Bunday chalkashliklarni oldini olish va bartaraf etishda, avvalo, o‘qituvchilar, so‘ngra, o‘quvchilar nutqida adabiy talaffuzni va imloviy savodxonlikni me’yor holatiga keltirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolar, ularning sababini aniqlash va bartaraf qilish choralarini ishlab chiqish zarur bo‘ladi.

Fonetika bo‘limini o‘qitishda bu kabi kamchiliklarning oldini olish, adabiy talaffuzni tartibga solish maqsadida, bizningcha, bundan keyingi yaratiladigan o‘quv dastur, o‘quv qo‘llanma va darsliklarni yaratishda hududlar kesimida, ya’ni qaysi hududda qaysi tovushlar talaffuzi bo‘yicha muammo borligi e’tiborga olinib, har bir hudud uchun alohida qilib darslik va dasturlar yaratilsa, bunday chalkashliklarni oldi olinarmidi?

Fonetikani o‘qitishda talaffuzi va imlosi qiyin bo‘lgan unli tovushlardan, asosan, **u-o‘**, **i-e** va undoshlardan **x-h q**, **ng** kabi tovushlar mavjud. Ular o‘quvchi va talabalarga turli usullar va metodlar orqali tushuntirilsa, samarali natijalar yaqqol seziladi. Bunday usullardan biri “Qiyoslash” usuli bo‘lib, bu usul o‘quvchi va talabalarni talaffuzi va imlosi qiyin unli va undoshlarni osonroq anglashga yordam beradi.

“Qiyoslash” usuli. Bu usulda pretmetlar, so‘zlar, tovushlar haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish uchun uni ikkinchisi bilan qiyoslash orqali o‘quvchi ular haqida yaqqol tasavvurga ega bo‘ladi. O‘qituvchi fonetika bo‘limidagi mavzularni tushuntirayotganda bu usuldan foydalansa, o‘quvchi va talabalarning tushunishi oson va samarali bo‘ladi. Yuqorida aytilgan talaffuzi va imlosi qiyin bo‘lgan **u-o‘**, **i-e** unli tovushlar, **x-h q**, **ng** kabi undosh tovushlarda xatoliklar juda ko‘p uchraydi. O‘quvchilar bu tovushlarning talaffuzi va imlosida xatoga yo‘l qo‘ymasligi uchun turli metod va usullardan, ko‘proq mashqlardan foydalanish zarur.

Agar o‘zbek tili ikkinchi til yoki davlat tili siftida o‘qitilayotgan bo‘lsa, mashqlar qatorini o‘quvchining tilidagi tovushlar bilan ham davom ettirish mumkin: masalan qiyoslang:

bol–боль	**but– буть**	**kon–конь**
sol –соль	**tut– тут**	**ton–тон**

son– сонь tush–тушь tok–ток

ton–тон shum–шум dom–дом

Bunday mashqlar, birinchidan, o‘quvchida adabiy talaffuzni shakllantiradi, ikkinchidan, o‘quvchini rus tili bo‘yicha bilimlarini ham boyitadi. Qolaversa, o‘qituvchi bu mashqdagi so‘zlarni namuna sifatida talaffuz qilib berayotganda so‘zlarning ma’nosini o‘quvchilarga tushuntirishga harakat qilib, sinonimlardan foydalanadi, natijada so‘z boyligini ham oshirishga erishadi [3,16].

Fonetikani o‘qitishda samarali natijalarga erishish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish zarur. Bu o‘ziga xos murakkab va mashaqqatli vazifadir, ammo o‘qitishda nazariy bilimlar bilan birgalikda ko‘proq mashqlar bajarish, turli metodlar va interfaol ta’lim usullaridan foydalanish, qiziqarli o‘quv muhitini yaratish, o‘quvchida fonetikani anglash va adabiy tilda talaffuzni shakllantirish, imloviy savodxonlikni oshirishda o‘z samarasini beradi.

Adabiyotlar:

1. Абдураҳмонов Ғ., РустамовА. Қадимги туркий тил. Тошкент, 1982.
2. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. — Тошкент: Уневерситет, 2010.
3. Hamroyev G‘. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida fonetikaga doir o‘quv materiallarining metodik ta’minotini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) diss avtoreferati. Samarqand-2019
4. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V. Она тили. Умумий ўрта таълим мактабларинг 5-синфи учун дарслик–Т.: Маънавият, 2007–224 б.
5. Неъматов Ҳ. Ўзбек тили тарихий фонетикаси, — Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
6. Нурмонов А. Танланган асарлар 1-жилд. — Тошкент. 2012. (Nurmonov A. Tanlangan asarlar 1-jild. —Toshkent. 2012).
7. Bayanxanova, I. F. (2023). LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS IN UZBEK, KOREAN AND ENGLISH. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, (1), 18-21.